



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Axmurodov D.Q

LYUSEN KEREN – TEMURSHUNOS OLIM SIFATIDA

Tugalov Boburjon Baxodir o‘g‘li

JDPU, Tarix fakulteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi,

Axmadqulov Nozim

JDPU, Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada temurshunos olim Lyusen Kerenning 35-yil umrini Amir Temur va temuriylar tarixini yoritishga bag‘ishlaganligi va bu bo‘yicha yozgan asarlari, Amir Temur shaxsini o‘z asarlarida yoritganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Lyusen Keren, Temurshunos, Amir Temur, B.Ermatov,

Аннотация: В данной статье представлена информация о 35-летнем периоде жизни тимуридского ученого Люсьена Керена, посвященного истории Амира Темура и Тимуридов, и о работах, которые он написал на эту тему, и о том, как А. Темур освещался в его произведениях.

Ключевые слова: Люсьен Керен, темуровский ученый, Амир Темур, Б. Эрматов

Annotation: This article provides information about the 35 years of Timurid scholar Lucien Keren's life to cover the history of Amir Temur and the Timurids, and the works he wrote on this subject, and how A. Temur was covered in his works.

Key words: Lucien Keren, Temur scholar, A. Temur, B. Ermatov,

Mustaqil O‘zbekistonning uzoq va yaqin o‘tmishiga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligi davrimizning o‘ziga xos xususiyatidir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, “Mustaqillik yillari – o‘z o‘tmishimizni, o‘z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu – jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir”.

Buyuk ajdodlarimizga, ularning hayoti, ijodi va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish nihoyatda katta ekanligi bejiz emas, albatta. Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, markazlashgan yirik kuchli davlat barpo etish bilan tarixda yorqin, o‘ziga xos va betakror iz qoldirgan Sohibqiron Amir Temur siymosi va Temuriylar sulolasi ana shu qiziqishlarning markazida, asosiy qismida turadi.

Bu borada jahon sharqshunoslari juda katta ishlarni amalga oshirib, mustaqil Temurshunoslik yo‘nalishiga asos solishgan. Bu borada esa Fransuz tadqiqotchilarining O‘zbekiston hamda jahon tarixi solnomalarida munosib o‘rniga ega bobokalonimiz hazrati Amir Temur va uning avlodlari haqidagi harqanday

siyosiy va mafkuraviy aqidalardan holi bo'lgan holis fikrlari Sohibqiron va Temuriylar sulolasiga adolatli baho berishda qo'l kelishi aniq.

Faransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor L.Kerenning kitob va maqolalari alohida o'rin tutadi. Uning bevosita ilmiy ijodiga to'xtalishdan avval qisqacha tarjimai holiga bir nazar solsak. Lyusen Keren 1920-yilda Fransiyaning Strasburg shahrida tavallud topgan. Uning asl mutahassisligi yershunos-bioximik. 1941-1946-yillarda u Fransiyaning mashhur Paster Universitetida stajyor va asisstent bo'lib ishlagan. 1951-yildan beri Parij universitetining doktori sifatida ishladi.

L.Keren uzoq yillar davomida fransuz texnikaviy yordami va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi doirasida ekspert va maslahatchi sifatida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, Vetnam, Benin, Marokash, Braziliya Livanda ish olib borgan. Portugaliyada Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining maslahatchisi bo'lib xizmat qilgan.

Professor L.Keren Fransiya "Sharqshunoslik uyushmasi" a'zosi va "Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish va fransuz-o'zbek madaniy aloqalari Uyushmasi"ning raisi va uyushma nashr etadigan "Temuriylar" jurnalining muharriridir.

Professor L.Keren o'z asarlarini yozishdan avval o'zidan avval Amir Temur to'g'risida yozilgan sharq, hamda g'arb manbalarini chuqur tanqidiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Sharafuddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning solnomalari, Rui Gonsales De Klavixo "Kundalik"lari, mavjud tarixiy-arxiv hujjatlari va yozma manbalar hamda taniqli faransuz sharqshunoslarining asarlari shular jumlasidandir. U Sohibqiron haqida ulkan arxiv, tarixiy, ashyoviy va hayotiy ma'lumotlar to'plagan. L.Keren ana shu asarlarni taqqoslab, ularning har biriga tarixiy dalillar nuqtai nazaridan ishonchliliga va xolis ekanligiga o'zini bahosini bergan. Natijada u Amir Temurning mukammal tarjimai holi va obrazini teran hamda xolis baholagan.

L.Keren Amir Temur shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidlarsiz yondashadi. U ilmiy va tarixiy dalillar asosida mulohazalar yuritadi va xulosalar chiqaradi. L.Keren Sohibqiron shaxsini tahlil etar ekan, faqat uning harbiy iste'dodidagina emas, balki maqsadni aniqlab unga erishish borasidagi siyosiy zakovatiga, diplomatik mahoratiga va bunyodkorligiga ham tan beradi. Albatta, shu bilan birga Amir Temur va uning yurishlari bilan bog'liq talqinlarida Yevropa mualliflariga xos ayrim jihatlar ham ko'zga tashlanib turadi. Ammo bularning bari sovet tuzumi davrida shuro tarixchilari va yozuvchilari Amir Temur haqida yozgan asossiz uydurmalar oldida hech narsa emas. [1:35-88]

O‘z asarlarini yozish jarayonida L.Keren bir necha bor O‘zbekistonga tashrif buyurib, Sohibqiron poytaxti – Samarqandda bo‘lgan, O‘zbekiston olimlari bilan ilmiy muloqotlar qilgan. Muallifning shu ko‘p yillik tinimsiz izlanishlarining natijasi o‘laroq ilmiy yangilik, manba va ma‘lumotlarga boy asarlari vujudga kelgan. L.Keren kitoblarida Amir Temurning jahon halqlari tasavvuridagi nodir rasmlari, Sohibqironning 1900 yili Parijdagi Umumjahon ko‘rgazmasida namoyish etilgan, bugungi kunda esa yo‘qolib ketgan oltin haykalchasi fotosuratlarini, tarixiy xaritalar va chizmalar berilgan.

Professor L.Keren Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga bag‘ishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning asosiy kitoblaridan biri “Tamerlan Yoxud Sohibqiron saltanati” ilk bor 1978-yilda bosib chiqilgan. Shundan so‘ng u Fransiya va Shvetsariyada bir necha bor nashr etilgan. Bu kitobda Amir Temurning tarjimai holi va saltanati tarixi solnomalari to‘liq qamrab olingan. Bundan tashqari muallif Amir Temur davlatining tarixi, xususan Temuriylar sulolasi, ya‘ni Shoxruh, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida boy tarixiy ma‘lumotlar hamda Temuriylar shajarasini bergan.

Professor L.Kerenning yirik asarlaridan yana biri “Temur davrida Samarqand yili” (Parij 1990) kitobi YUNESKOning “Ipak yo‘li-muloqot yo‘li” dasturi doirasida tayyorlangan. Bu kitob Kastiliya elchisi Rui De Klavixoning Amir Temur saltanati poytaxti Samarqandga safari haqidagi “Kundaliklar”ining ispan tilidan fransuz tiliga izohli tarjimasidir. Bu kitob matbaa ijrosi, miniature va rangli suratlarga boyligi, ilmiy – tarixiy ma‘lumotlarning keng ko‘lami bilan boshqa tillarda chop etilgan nashrlardan alohida ajralib turadi. Professor L.Keren o‘z asarlarida Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig‘i, muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanligini alohida e‘tirof etadi. [2:8]

L.Keren “Amir Temur” nomli ikki qism, olti pardali piesa ham yaratgan. Bu asarni B.Ermatov o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Professor L.Keren salkam 35 yil davomida Amir Temur to‘g‘risida olib brogan tadqiqotlarining xulosasi sifatida shunday deb yozadi: “Bir tomondan qattiqqo‘l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turadi, bir tomonda butun-butun shaxarlarni zabt qiluvchi Temur bo‘lsa, bir tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bo‘g‘lar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrihlar uchun ham jumboq bo‘lib qolmoqda”.

Bobomiz Amir Temur: “Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq, uning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir” - deb avlod-ajdodlarimizga vasiyat qilgan ekanlar, bugun yurt dardi bilan yashash, elga halol mehnat qilish -ulug‘ bobomizning nasihatlarini bajarishdir. [3:132]

Amir Temurdek yorqin tarixiy shaxs olmosning ba'zi qirralariga kichik bir sharx tariqasida bitilgan ushbu maqola aziz o'quvchilarimizga jahonda, xususan Fransiyada temurshunoslik ilmi qanchalik rivojlanganligi haqida muayyan tasavvur bergan bo'lsa oldimizga qo'ygan vazifamizni bajardik deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlari chuqurlashtirish yo'lida Toshkent "Hidoyat" 1995. B. 8.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent.: 1994. B. 132.
3. Saidov A. Amir Temur va Fransiya. Toshkent.: "Adolat".1996. B. 35-88.